



Barno BOLTAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: boltayevabarno3@gmail.com.

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

ON THE ANALYSIS OF THE PHRASEOLOGICAL UNIT “OSHIG’I OLCHI” IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Phraseological units reflect the cultural characteristics of a particular society. The article discusses the ability of phraseological units to broadly express relationships and emotions, as well as how they reflect the people’s views and way of life. One of the primary functions of language is to preserve the cultural heritage of society, and the unique identity of a nation is reflected in its specific phraseological units. The article examines certain phraseological units in Uzbek and Turkish languages. Specifically, the phraseological unit in Uzbek, “oshig’i olchi”, is analyzed alongside its Turkish counterpart “aşığı bek oturmak”, focusing on their similarities in formation and usage, which are illustrated with examples.

Keywords: Folk oral creativity, phraseological unit, linguistic culture, formation of phraseological units, changes in phraseological units.

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ «ОШИГИ ОЛЧИ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В фразеологических единицах отражаются особенности культуры того или иного общества. В статье описываются возможности фразеологических единиц в выражении отношений и эмоций, а также то, как в них находят отражение взгляды народа и его образ жизни. Одной из важнейших функций языка является сохранение культурного наследия общества, и в фразеологических единицах, принадлежащих данному народу, проявляется национальная самобытность. В статье рассматриваются некоторые фразеологические единицы узбекского и турецкого языков. В частности, проанализированы фразеологическая единица узбекского языка «ошиги олчи» и близкая по значению фразеологическая единица турецкого языка «aşığı bek oturmak», а также их сходства в формировании и употреблении, которые освещены на примерах.

Ключевые слова: Народное устное творчество, фразеологическая единица, лингвокультура, формирование фразеологических единиц, изменение фразеологических единиц.

O'ZBEK TILIDAGI “OSHIG’I OLCHI” FRAZEOLGIK BIRLIGI TAHLILIGA DOIR

Annotatsiya

Frazeologik birliklarda u yoki bu jamiyatdagi madaniyatning xususiyatlari aks etadi. Maqolada frazeologik birliklarning munosabat va hissiyotni keng ifodalash imkoniyatlari, ularda xalqning qarashlari va yashash tarzi aks etishi bayon etilgan. Jamiyatning madaniy o'tmishini saqlab qolish tilning eng muhim vazifalaridan biridir va shu millatga tegishli frazeologik birliklarda millatning o'ziga xosligi aks etishi ta'kidlab o'tilgan. Maqolada o'zbek tilidagi va turk tilidagi o'xshash frazeologik birliklarning ayrimlari o'rganiladi. Jumladan, o'zbek tilidagi “oshig’i olchi” frazeologik birligining ma'nosiga yaqin bo'lgan turk tilidagi “aşığı bek oturmak” frazeologik birliklari tahlil etilgan, ularning shakllanishi va qo'llanilishidagi o'xshashliklar misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, frazeologik birliklarning shakllanishi, frazeologik birliklar o'zgarishi.

Kirish. Frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma'naviy qarashlar, ikkinchidan, lisoniy, ya'ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Adabiy til, ayniqsa, uning lug'at tarkibi va frazeologik boyligi to'xtovsiz taraqqiy etadi, o'sadi va rivojlanadi, chunki jamiyatda bo'ladigan turli o'zgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo bo'ladigan narsa-hodisalar uchun tilda maxsus atamalar bo'lishini taqozo etadi. Ana shunday obyektiv sabablar asosida tilda yangi-yangi so'zlar, frazeologik birliklar paydo bo'ladi.

Ilmiy manbalarda transformatsiya (lot.transformatio-o'zgarish)ga asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish, boshqa manbalarda esa asos lisoniy modeli(til strukturasi) asosida ikkilamchi lisoniy shaklning yaratilishidir deb ta'rif beriladi. Darhaqiqat, frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarning semantik-struktur tabiati qanchalik yo'l qo'ysa, ularning tarkibida shunchalik o'zgarishlar voqe bo'la oladi [5].

Frazeologik birliklar tarkibidagi leksemalarning birikuvchanlik xususiyati va imkoniyati, ularning struktural, leksik va semantik o'zgarishini ta'minlaydi. Bu esa frazeologik

birliklarni uslubiy va semantik-pragmatik o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Frazeologik shakllanishning eng muhim vositalaridan biri semantik o'zgarishdir. Shuning uchun ham til ilmda frazeologik birliklarga semantik hodisa sifatida qaraladi. So'z birikmasi yaxlitligicha ma'no jihatidan bir tushunchadan ikkinchi tushunchaga o'tishi, erkin bog'lanmaning ma'nosi frazeologik birlikka transformatsiya qilinishi mumkin. Besh barmog'ini og'ziga tiqmoq – “o'z manfaati yo'lida tamagirlik qilmoq”; etagini siltamoq – biron narsadan, kishidan yoki ishdan voz kechmoq; jigaridan urmoq – “o'ziga shaydo qilib olmoq” kabi frazeologik birliklarda ma'no biror komponentning ma'nosiga to'liq suyanmaydi, asoslanmaydi. Bu jarayonda erkin bog'lanma tarkibidagi leksemalarning xususiy-analitik ma'nolari, umumlashgan yaxlit ma'noga o'tadi. Frazeologik birliklarni tashkil etgan komponentlar so'zlardagi o'zak morfemalardek maxsuslashmaydi, barqaror bo'lmaydi. Erkin bog'lanma semantik o'zgarib frazeologizmlashtiriladi.

To'liq semantik shakllanishda frazeologik birliklar tarkibidagi barcha so'z komponentlar yaxlitligicha o'zgaradi. Masalan, oyog'idan tortmoq, bir cho'qishda qochirmoq, qo'ltig'iga suv purkamoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq, otinni boshqa qo'yaman kabi frazeologik birliklarning ma'nolari to'liq

metafora yo'li bilan yuzaga keladi. Qisman semantik shakllanishda esa frazeologik birliklarning ma'nolari ayrim komponentlarni ko'chma ma'noda qo'llash asosida yuzaga keladi. Masalan, haqiqatni bukmoq frazeologik birligining ma'nosi "bukmoq" fe'lining ko'chma ma'nosi asosida shakllangan. Tuzog'iga ilinmoq, tuxum bosmoq, chapak chalib qolmoq kabi frazeologik birliklar o'rni bilan erkin bog'lanma tarzida ham, frazeologik ma'nosi bilan ham qo'llaniladi. Bu kabi birikmalarda frazeologik ma'no shakllanganda ham ular o'zining dastlabki shaklini saqlaydi, biroq ma'nosi o'zgaradi.

O'zbek tilidagi "oshig'i olchi" frazeologik birligi ham o'rni bilan erkin bog'lanma tarzida ham, frazeologik birlik ma'nosi bilan ham qo'llaniladi. Oshiq o'yinida erkin bog'lanma tarzida, o'yindan tashqarida frazeologik birlik tarzida qo'llaniladi.

B.YO'ldoshev "Frazemalar o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy, madaniy hayoti, o'ziga xos tushunchalari asosida yuzaga keladi" deya ta'kidlab, "do'ppisini osmonga otmoq", "oshig'i olchi (bo'lmoq)" iboralarini keltirib o'tadi [7]. Haqiqatdan ham o'zbek tilida "oshig'i olchi (bo'lmoq)" iborasi ko'p qo'llaniladi.

O'zbek olimi A.Mamatov "oshig'i olchi" frazeologik birligi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tadi: "Oshig'i olchi (bo'lmoq)" frazeologik birligi ham o'zining milliy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, xalqimiz azaldan oshiq o'yinini o'ynab keladi. O'yin davomida oshiq yassi tomoni bilan turib qolsa, uni otgan kishi "olchi" deb tan olinadi. Olchi o'rtaga qo'yilgan sovrinni oladi. Demak, olchi "ishi yurishgan", "muvaffaqiyat qozongan" ma'nolarini bildiradi. Shu tushuncha asosida "ishi yurishgan kishilar" ma'nosi "oshig'i olchi" frazeologik birligi bilan ifodalanadi" [8].

Ammo olib borilgan tadqiqotlarda "oshig' otmoq", "oshig'i olchi bo'lmoq" ma'nolaridagi frazeologik birligining turk tilida ham ko'p qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, turk olimi Zülfi Gülnerning "Harput Ağzı" kitobida mahalliy frazeologik birliklar qatorida Aşşuh atmah: Teşebbüs etmek, bir şeyi almak için teşebbüs etmek; rast gele, kumar oynarcasına işe girişmek frazeologik birligini keltirib o'tadi [6].

Turk tilidagi frazeologik birliklarni chuqur o'rgangan Ahmet Turan Sinan esa "Türkçenin deyim varlığı" kitobida bu frazeologik birlikning turk adabiy tilidagi "aşığı bek/bey, cuk, çift oturmak", "aşığını boyamak", "aşık atmak", "aşık oynamak" shakllarini keltirib o'tadi [4].

Elazığ' shahrining Sako mahallasida mavjud bo'lgan xalq o'yinlari haqida yozgan Ahmet Bulut quyidagilarni keltirib o'tadi. "Aşuğ - küçükbaş hayvanların ayak bileğinden çıkarılan Z harfine benzeyen kemik paçasına denir, üst kısmına zil, alt kısmına tam, iç yan kısmına eşek denirdi. Üzerindeki et parçaları iyice temizlenerek özenle hazırlanırdı, iyi olanına "Sakka" denirdi (Ashug'-kichik bosh hayvonlarning (qo'y, echki) oyoq qismidan chiqarilgan Z harfiga o'xshash suyak bo'lagidir, ust qismiga "zil", tag qismiga "tam", ichki yon qismiga "eshak" deyiladi. Sirtidagi go'shtlaridan yaxshilab tozalaniib maxsus tayyorlanardi va yaxshi bo'lganiga "Sakka" deyilardi [2].

O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qiladigan bo'lsak, turk tilida ham o'zbek tilida ham ayni bir narsaning ta'riflanganligiga guvoh bo'lamiz: oshiq 1. ayrim hayvonlarning orqa oyog'i tizza bo'g'imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha. Echkining oshig'i. Tuyanining oshig'i- Endi hovlilarning eshigi ochilgan, bolalar cho'ntaklarini yong'oq, oshiqlarga to'ldirib, ko'chaga chiqqa boshlagan edi. Q.Kenja, Notanish gul.

2. Shunday suyakcha (odatda qo'y oshig'i) vositasida o'ynaladigan o'yin. Oshiq otmoq. -Mening yoshligimda birga oshiq o'ynab, yaxmalak otib o'sgan bir og'aynim bor. Shukrullo, Saylanma. Tavba! Eshon "gardkam" deb oshiq otadimi, a? Oybek, Tanlangan asarlar [9].

Qirg'iz olimi M.Orozobayev o'zining "Kırgız kültüründe aşık kemeği ve kırgızcadaki aşık oyunları ile ilgili söz varlığı" kitobida "oshig" so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Aşık kemeği; koyun, keçi, dağ keçisi, dağ koyunu, karaca, ceylan, inek, manda, geyik gibi çift toynaklı hayvanların arka ayaklarının diz kısmında yer alan dört yüzlü, köşeli ve düzgün biçimli olması nedeniyle avuç içinde veya parmaklar arasında tutmaya ve fırlatmaya son

derece uygun olan kemiktir" [111. 29-b]. Yana bu so'zning boshqa qardosh tillarda ham mavjudligini ta'kidlaydi: "Kırgızcanın dışındaki diğer bazı çağdaş Türk yazı dillerinde ise şu şekillerde görülmektedir: Az. alçı "Aşık-aşık oyununda: aşığın bir üzü, tohan üzün arha tarafı" (Ahundov ed.2006:1,95); Kzk. alçı "Aşık kemeğinin dik koyulduğunda çukur olan tarafı" (Koç vd. 2003: 43); Kklp. alçı "Storona alçıka/aşığın yan tarafı/" (Baskakov ed. 1958:40); KMLk. alçı "Aşık kemeğinin çukur tarafı" (Tavkul 2000: 78); Özb. olçı "1. Vognutaya bokovaya storona alçıka; 2. Viğırnoye polojeniye alçıka" (Akobirov 1988:311); Trkm. alçı "alçı (storona alçıka protivopolojeniya taganu -tohanın zıt tarafı/)" (Baskakov ed.1968:42); Yuyg. alçı "Aşığın dört tarafından biri" (Necip 2008: 8); Hks. alçı "1. Aşık kemeğinin çukur tarafı 2. (Aşık oyununda) kazandıran pozisyon" Naskalı vd. 2007: 36) [111. 106-b] deya alchi so'zining ozarbayjon, qozoq, qoraqalpog, qalmaq, o'zbek, turkman, uyg'ur, hakas tillarida mavjudligini dalillaydi.

Keltirilgan ma'lumotlarda har ikki tilda ham ayni bir narsa ta'riflanadi.

"Oshiq otmoq", "oshig'i olchi" frazeologik birliklari esa ayni shu voqelikdan kelib chiqib shakllangan farzeologik birliklardir. Turk olimi Ahmet Turan Sinan "Deyimlerin kısa hikâyeleri" kitobida turk tilidagi frazeologik birliklarning shakllanishi borasida ularning kelib chiqish omillariga diqqat qaratadi va "oshig' otmoq" frazeologik birligi bo'yicha quyidagilarni bayon etadi: "Aşık atmak- kendisinden güçlü olan biriyle yarışmak, mücadele etmek. Hikâyesi: Koyunların ve keçilerin arka bileklerinden çıkarılan dört yüzlü kemikle oynanan oyun. Kimileri ağır olsun diye kurşunlanırdı. Bir dairenin içindeki ya da bir çizgi üzerinde dizilen aşıkların yayınacak atışla en az üç ayak mesafesi uzaklaştırılmasına dayanan eski bir Türk oyunundan çıkmıştır. İyi oynayan ve sürekli kazanan usta kimse için "Onunla kimse aşık atamaz" denir (Oshiq otmoq-o'zidan kuchli bo'lgan birisi bilan musobaqalashmoq. Hikoyasi: so'yilgan qo'ylarning va echkilarning orqa oyoqlaridan chiqarilgan to'rt yuzli suyak bilan o'ynaladigan o'yin. Ba'ziları og'ir bo'lsin deb qo'rg'oshinlanardi. Bir doira ichidagi yoki bir chiziq ustida tizilgan oshiqlarni oshiq bilan urish orqali eng kamida uch oyoq masofaga uzoqlashtirishi kerak bo'lgan eski bir turk o'yinidir. Yaxshi o'ynagan va muntazam g'alaba qilgan mohir kishi uchun "Uning bilan hech kim oshiq otisha olmaydi" deyishadiz) [3].

O'zbek tilining izohli lug'atida esa frazeologik birlikka shunday ta'rif berilgan: oshig'i olchi - ishi baroridan kelmoq, muvaffaqiyatga erishmoq tarzida izohlanadi. Arang g'alabaga erishdim. Endi men bilan bamaslahat ish yuritsangiz, kam bo'lmaysiz, doim oshig'ingiz olchi bo'ladi. J.Abdullaxonov, Xonadon [9].

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'zbek va turk tilidagi "oshig'i olchi" va "oshig' otmoq" ma'nosidagi frazeologik birliklarning shakllanish manbai bir va u bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ya'ni "Turkiy so'zlar devoni" asarida XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hudidida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. G'Abdurahmonov hamda S.Mutallibovlar tomonidan nashr etilgan Devonu lug'otit turk (indeks-lug'at)da "oshig" so'zi "ashuq" shaklida keladi va uning ma'nosi odam to'pig'i shaklida berilgan. Uning davomidan "ashuqladi"-to'pig'iga urdi shaklini ham keltirib o'tgan [1].

Ko'rinadiki, devonda ham oyoqdagi suyak ma'nosida kelmoqda. Demak, XI asrda bu so'z mavjud bo'lgan va u bugungi kunda ham ayni ma'nosida qo'llaniladi.

Albatta, tilda frazeologik birlikning yuzaga kelishi va barqarorlashishida ekstralisoniy omillar ham muhim rol o'ynashini qayd etish lozim. Bu omillarning birinchisi til vakillarining u yoki bu hodisa, holat, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash bilan aloqador ehtiyojdir. Shu tufayli tilda ko'plab turli ma'noli frazeologizmlar yuzaga keladi.

Ikkinchidan, ular xalq ijodiyotining mahsuli bo'lganligi sababli muayyan bir joyni tabiati, xalqning iqtisodiy tuzumi,

tarixi, mafdamiyati, hayot tarsi, og'zaki ijodiyoti, badiiy avloddan-avlodga o'tib boradi. adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati kabilarni aks ettiradi va

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Муталлибов С. Девону луғотит турк (индекс-луғат). Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Тошкент-1967.
2. Ahmet Bulut. Unutulmayan mahalle “Sako”. Ankara-2006. 42-s
3. Ahmet Turan Sinan. Deyimlerin kısa hikayeleri. İstanbul. 2019. KESİT. 50 s.
4. Ahmet Turan Sinan. Türkçenin deyim varlığı. İstanbul. 2015. KESİT. 281 s.
5. Boltayeva, B. (2020). Фразеологик бирликларнинг семантик трансформацияси. Boshlang'ich ta'limda Innovatsiyalar, 1(1). извлечено от <https://primedu.jdpu.uz/index.php/primedu/article/view/132>
6. Zülfi Güler. Harput Ağzı, Elazığ' - 2012, Manas. 111 s.
7. Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1992. - 3-4-сонлар. – Б. 38.
8. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. ф. док. диссертацияси. Т. 2000й.; 24-б.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 170-b.